

## TIQXMMI professorining chet el universitetlaridagi navbatdagi uchrashuvi

Xabaringiz bor shu kunlarda intitut professori Turkiyaning bir qator universitetlari taklifiga binoan xizmat safarida bo'lib turibdi. Ushbu xizmat safarining navbatdagi manzili Turkiyaning Bolu Abant İzzet Baysal Universiteti bo'ldi. 6-aprel kuni professor Obid Tursunov Turkiyaning Bolu Abant İzzet Baysal Universiteti rektori professor Mustafa Alisarli bilan rasmiy uchrashuv o'tkazdi.



Uchrashuv davomida Bolu Abant İzzet Baysal universiteti (BAIBU) va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI) o'rtasida ikki tomonlama aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, muhandislik sohasida hamkorlik qilish va qo'shma loyihalar ishlab chiqish, shuningdek, qishloq xo'jaligi hamda atrof-muhit sohalarida o'zaro ilmiy ishlar olib borilishi kelishib olindi.



Bundan tashqari tashrif davomida institut professori O.Tursunov Bolu Abant İzzet Baysal Universiteti professori Nusret Karakaya hamrohligida universitet ilmiy-tadqiqot markazlari va laboratoriyalari bilan yaqindan tanishdi.

Batafsil

ma'lumot

quyidagi

havolada

keltirilgan: <http://ajanda.ibu.edu.tr/taskent-sulama-ve-ziraat-muhendisligi-enstitusunden-rektor-alisarliya-ziyaret/>

**"ETvaQTEM" kafedrasи tayanch doktoranti N.Abdug'aniyev**

**TIQXMMI matbuot xizmati**